

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUALLIFLIK HUQUQI TUSHUNCHASI,
MUALLIFNING HUQUQINING JINOYAT KODEKSI BILAN MUHOFAZALANISHI

S.Berdiboyev

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasida intellektual mulkka bo'lgan mualliflik huquqini himoya qilish hamda Jinoyat kodeksining 149-moddasi Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish jinoyatining tahlili.*

Kalit so'z: *Fuqarolik kodeksi, jinoyat kodeksi, mualliflik huquqi, kashfiyotlar, patent, hammualliflik, zarar, huquqiy himoya qilish, jinoyat, jinoiy javobgarlik, jinoyatning oldini olish.*

Butun dunyo iqtisodiy ijtimoiy hamda madaniy rivojlanar ekan, insoniyat tomonidan yangi-yangi islohot uchun qilinayotgan kashfiyotlar, yangi g'oyalar paydo bo'lib bormoqda. Yangi g'oyalar natijasi bo'lgan kashfiyotlarga mualliflik huquqi esa davlat himoyasida hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxorlik qiladi" deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 21-iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonuni intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish borasidagi normativ huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Amaldagi Fuqarolik Kodeksiga ko'ra, Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmatini, shuningdek ifodalanish usulidan qat'iy nazar tatbiq etiladi. Mualliflik huquqi oshkor qilingan ham, oshkor qilinmagan, obyektiv shakliga ko'ra: yozma; og'zaki; ovozli yoki video yozuv; tasvir; hajmli-fazoviy hamda boshqa shakldagi asarlarga tatbiq etiladi. Mualliflik huquqi go'ya, uslub, jarayon, tizim yoki konsepsiyalar uchun emas, balki ifoda shakliga nisbatan beriladi.

Mualliflik huquqi obyektlari deb adabiy asarlar, drama va ssenariy asarlar, matnli yoki matnsiz musiqalar, musiqali drama asarlar, audiovisual asarlar, manzarali, amaliy va sahna bezagi san'ati asarlari, arxitektura, shaharsozlik va bog'-park barpo etish asarlari, fotografiya asarlari, jo'g'rofiya, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, barcha turdagi EHM uchun dasturlar va boshqa asarlar tushunilishi lozim. Rasmiy hujjatlar, rasmiy ramzlar va belgilar, xalq ijodiyoti asarlari mualliflik obyekti hisoblanmaydi¹⁹.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 21-iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni, 6 va 8-moddalari

O'zbekiston Respublikasida mualliflik huquqining muhofaza belgilariga aylana ichidagi "C" harfi, mualliflik huquqi egasining F.I.Sh. (nomi) hamda asarning birinchi marta chop etilganligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk obyektlari egalarining mualliflik huquqini boshqa bir shaxs tomonidan buzilganligi uchun ya'ni mualliflarning shaxsiy nomulkiy huquqlarning buzilishida, ijrochining ismi-sharifga bo'lgan va ijroni har qanday tarzda buzish ko'rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz qilinishidan himoya qilish huquqlarini buzishda, haq to'lash to'g'risidagi talablarni buzish, shartnomada belgilangandan oshirib yuborgan holda asarlardan foydalanishda va huquq egalarining mulkiy huquqlarini boshqacha tarzda buzilganligi uchun javobgarliklar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 149-moddasi Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu turdagi jinoyatning obyekti, intellectual mulkning, xususan, mualliflik va ixtirochilik huquqning himoya qilinishiga oid fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan bu jinoyat quyidagi hollarda: 1. Mualliflik huquqini o'zlashtirib olishda. 2. Hammualliflikka majburlashda. 3. Intellektual mulk obyektlari haqida ma'lumotlarni ular ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar yoki e'lon qilingunga qadar **muallifning roziligisiz** oshkor qilish namoyon bo'ladi.

Jinoyat tarkibiga ko'ra, subyekti 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin va subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi ya'ni subyekt o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligini angelaydi, oqibatiga ko'zi yetadi va ularning yuz berishini istaydi²⁰

Mualliflik huquqini o'zlashtirib olish deganda, o'zgalarning mualliflik asarlari, ixtiro, foydali modeli yoki boshqa intellectual obyektlardan o'zining nomidan foydalanish, ya'ni intellektual obyektlarni ommalashtirish, asar nusxalarini tarqatish, sotish, omma oldida namoyish qilish tushuniladi.

Hammualliflikka majburlash deyilganda, intellectual mulk obyektining mualliflik huquqi egasiga turli yo'llar bilan ta'sir o'tkazish, ya'ni ushbu intellektual mulkni yaratishda qatnashmagan boshqa bir subyekt tomonidan ta'sir o'tkazish tushuniladi. Misol uchun, jismoniy tahdid solishi yoki qonuniy imtiyozlardan mahrum etish bilan qo'rqitishi.

Muallifning roziligisiz Intellektual mulk obyektini ro'yxatga o'tkazilishdan avval boshqa bir shaxs tomonidan hech bo'lmasa bitta kishini ommaviy axborot vositalari orqali yoki konferensiyalarda nutq so'zlash orqali xabardor qilinishi hisoblanadi.

Amaldagi JKga ko'ra, yuqorida nazarda tutilgan har qanday harakat bajarilgan taqdirda, har qanday oqibatlar kelib chiqishidan qat'iy nazar ijtimoiy xavfli qilmish tugallangan hisoblanadi.

²⁰ Jinoyat huquqi (ulıwma bólim) sabaqlıq — Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2019-jıl, 142 b

Ushbu turdagi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganligi, hamda aybli deb topilgan taqdirda, unga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravaridan 75 baravarigacha miqdorda jarima jazosi yoki 5 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolari qo'llanilishi mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, intellektual mulkka bo'lgan mualliflik huquqlarini himoya qilish davlat zimmasida, hamda mualliflik huquqi egalarining barcha nomulkiy hamda mulkiy huquqlariga zarar yetkazilganligi uchun esa jinoiy javobgarlik mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. URL: <https://constitution.uz/oz/clause/index#section15>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2021 yil 1 aprelgacha bo'lgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan] – T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y.
3. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonuni URL: <https://lex.uz/docs/-76671>
4. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 21-iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni URL: <https://lex.uz/ru/docs/-1022944#-1023016>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 469-sonli "Mualliflik huquqi obyektlarining elektron nazorat nusxalarini yagona bazada saqlash tartibi to'grisidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6165752>
6. Рустамбаев М.Х Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм/М.Рустамбаев. – Тошкент: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y
7. Jinayat huquqi (ulwma bolim) sabaqliq — Nökis: «Qaraqalpaqstan», 2019-jil, 508 b URL: <http://karsu.uz/wp-content/uploads/2019/07/11-1.pdf>
8. Утемуратова С. Инсан ҳуқуқ ҳәм еркинликлерин тәмийнлеўдиң ҳуқықый тийкарлары. Суд-хуқуқ ислоҳотлари: бугуни ва истиқболи» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари Нукус 7 май 2018 –Б.81-83
9. Утемуратова С. Инсан мәплери үстинлигин тәмийнлеўдиң конституциялық тийкарлары. «Инсон манфаатларини таъминлашда Ҳаракатлар стратегиясининг аҳамияти» мавзусидаги илмий-амалий конференцияси Нукус 15 май 2017 –Б.11-12.